



**TOVUSHLAR TALAFFUZINI BARTARAF ETISH VA FONETIK IDROKNI
RIVOJLANTIRISH.**

*Andijon Davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika
fakulteti Maxsus pedagogika (Logopediya)
yo'nalishi 2-kurs 203-guruh talabasi
Ibragimova Sayyoraxon Akramjonovna*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233925>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tovushlar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish va fonetik idrokni rivojlantirish usullari muhokama qilinadi. Talaffuz muammolari bolalar va kattalarda nutq taraqqiyotiga ta'sir qiladigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois nutq terapiyasi, artikulyatsiya mashqlari kabi uslublar orqali ularni to'g'rilash yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada til mutaxassislari va logopedlar tomonidan tavsiya etilgan innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompleks yondashuv vositasida talaffuz kamchiliklarini samarali bartaraf etish va fonetik idrokni kuchaytirish mumkin.

Kalit so'zlar: talaffuz, fonetik va fonematik idrok, artikulyatsiya mashqlari, korreksiya, dislaliya

Nutq kamchiligini aniqlash, o'rganish, bartaraf etish va oldini olish defektologlarning barcha sohalari (logopediya, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika va surdopedagogika) uchun dolzarbdir. Nutqdagi kamchiliklar bolalarning muomala qilish va o'qitish uchun salbiy ta'sir etadi. Nutq buzilishlari uzoq vaqt bartaraf etish ishlarini olib borishni talab etadi.

Tovushlar talaffuzini tekshirish. Tovushlar talaffuzining xolati logopedik amaliyotda umumiy qabul qilingan quyidagi sxema bo'yicha tekshiriladi. Bolaga predmetli rasmlar ko'rsatiladi, bunda rasmdagi predmetlarni ifodalovchi so'zlar ichida tekshirilayotgan tovush uch o'rinda kelishi kerak: so'zning boshida, o'rtasida va oxirida.

Tekshirish jarayonida tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar: aloxida tovushlari talaffuz etmaslik, noto'g'ri talaffuz etish, almashtirish xollari belgilab boriladi. Tovushlar talaffuzi avval alohida, so'ngi so'zlarda, jummalarda tekshiriladi. Bundan tashqari, bola turli bog'in tuzilishiga ega bo'lgan so'zlarni qanday talaffuz qilishini tekshirish ham alohida ahamiyatga ega (masalan, ruchka, televizor, gultojxo'roz).

So'zlarda tovushlar talaffuzini tekshirish uchun maxsus tanlangan predmetli rasmlar guruhidan tovush so'zning boshida, o'rtasida va oxirida kelishi lozim. Masalan:

S: salla, kosa, gilos

SH: shar, kichik, tosh.

L: lola, bola, lol.

Y: yo'l, ayiq, uy.

R: randa, marra, archa, qor.

G: gugurt, tanga, tag.

K: kitob, ruchka, maktab, koptok,

X: xo'roz, paxta, mix.

Z: zebra, mazza, qog'oz.

CH: chok, kuchuk, qaldirg'och.

Q: qalam, qurbaqa, boshoq.

Agarda so'zlarda tovush talaffuzini aniqlash qiyin bo'lsa, unda shu so'zlarni logoped ketidan qaytarib talaffuz etish tavsiya etiladi. Shunday holatlar uchraydiki, ba'zida bolalar tovushni bir so'zda to'g'ri talaffuz etadi, ba'zi so'zlarda esa boshqa tovushlarga almashtiradi. Buning uchun tekshirilayotgan tovushni iborali nitqda ham tekshirish tavsiya etiladi. Buning uchun bolaga bir nechta iborani ketma-ket etish taklif qilinadi, bunda tekshirilayotgan tovushni bola bir necha



so'zlarda ketma-ket qaytarishi lozim. Buning uchun she'r, maqol, matal, tez aytishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tovushlar talaffuzini tekshirish vaqtida bola o'z nutqida fonemalarni aralashtirib yuborishiga yoki ularni boshqa tovushlarga almashtirishiga (alohida so'zlarda va iboralarda) alohida ahamiyat bermoq lozim. Shunday hollar uchraydiki, bola s va sh tovushini alohida to'g'ri talaffuz qiladi, lekin nutqda bu tovushlarni almashtiradi. (Shalim shabzi terdi).

Shuning uchun iborali nutqda tovushlar differentsiatsiyasini tekshirish zarurdir.

Tekshirish uchun maxsus predmetli va syujetli rasmlar tanlanadi.

So'zning bo'g'in tuzilishini tekshirish. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar bilan birga bolalarda ko' bo'g'inli so'zlar va qo'sh undoshli so'zlarni talaffuz qilishda bir qator qiyinchiliklar kuzatiladi. Masalan: televizor-tvazor, mexanizatsiya-mexansasa, kelinoyi-kenagi, qo'ng'iroq-qo'g'iroq, militsioner-missoney.

So'zlarda bo'g'in tuzilishining buzilishi tovushlar va bo'g'inlar o'rnini almashtirish, ularni tashlab ketish, q'shib talaffuz etish xollarida ko'proq namoyon bo'ladi. Shuning uchun bola turli bo'g'inli so'zlarni qanday talaffuz etayotganini tekshirish zarurdir.

Quyida shunday soz'lardan misollar keltiriladi.

tramvay	shahanshoh
qanddon	o'yinchoqlar
gulli	ekskavator
gultojixo'roz	daraxtzor
televizor	mexanizatsiya
trolleybus	jadallashtirish

Fonetik idrokni rivojlantirish nutq tovushlarini eshitish, ajratish va to'g'ri talaffuz qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Minimal juftliklarni farqlash: Masalan, kat-qat, bola-pola kabi o'xshash, lekin farqli tovushlarga ega so'zlarni eshitib ajratish.

Musiq avval she'rlar: Xususan qofiyali she'rlar fonetik idrokni yaxshilashga yordam beradi.

Fonematik idrokni tekshirish. Tovushlar talaffuz holati tekshirib bo'lingach, bola qanday eshitib idrok etishi, ularni bir-biridan ajratishi tekshiriladi. Ayniqsa bu artikulyatsiya jihatidan bir-biriga o'xshash va jarangli va jarangsiz tovushlarga tegishlidir. Buning uchun turli fonemalar guruhidan foydalaniladi. Masalan sirg'aluvchi va shovqinli (sa-sha, sha-sa, za-ja, ja-za, sa-za, za-sa,) jarangli va jarangsiz (pa-ba, ba-pa, ta-da, da-ta va boshqalar), sonor tovushlar (ra-la, la-ra va boshqalar).

Tekshirish vaqtida logoped o'zining ketidan turli oppozitsion bo'g'inlarni qaytarishni so'raydi. Masalan: sa-sha, sha-sa, ra-la, la-ra va boshqalar.

Agarda bola ba'zi tovushlarni noto'g'ri talaffuz etsa, tovushlarni farqlash quyidagicha tekshiriladi: bolaga ma'lum (berilgan) bo'g'inni eshitganda biror bir harakatni bajarish tavsiya etiladi. Masalan: bola bir qator sa, za, pa, cha bo'g'inlar ichida sha bo'g'inini eshitganda qo'lini ko'tarish.

Bundan tashqari bolaga aytilishi jihatdan o'xshash, ma'nosi jihatdan farq qiladigan so'zlar ham berilib, ularni ajratib olishi tekshiriladi. Masalan: sim-shim, kuz-tuz, bosh-tosh, pol-bol, gul-kul. Bu tekshirish turli usullardan foydalanib o'tkazilishi mumkin. Masalan: kerakli rasmni olib, sim-shim yoki kuz-tuz, so'ng ma'nosini aytib berish, ya'ni kuz nima-yu, tuz nima? yoki sim nima-yu shim nima?

Bunday har tomonlama logopedik tekshirishlarning natijalari hamma kerakli ma'lumotlarni olishga, dislaliyaning sabablari, harakteri, og'ir yoki yengil darajali ekanligi haqida hulosalar chiqarishga, shuningdek kamchilikni tuzatish yo'llarini belgilashga imkon beradi.

Logopedik -korreksion (tuzatish) ishlar sistemasi.



Tovushlar talaffuzining to'g'ri shakllanishi bo'yicha olib boriladigan hamma logopedik ishlar sistemasini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin.

I-bosqich-tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) eshitish diqqatini, eshitish xotirasini va fonematik idrokni rivojlantirish;

b) nutqiy motorika rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etish, pereferik nutq apparati a'zolarining harakatini rivojlantirish uchun artikulyatsion mashqlar o'tkazish.

II-bosqich-talaffuz qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Bu davrning asosiy vazifalari:

a) noto'g'ri tovush talaffuzini bartaraf etish;

b) bolalarda mustaqil nutqning turli ko'rinishlarida talaffuz qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Xulosa o'rnida, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish va fonetik idrokni rivojlantirish nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, logopedik mashqlar va artikulyatsion treninglar orqali talaffuz muammolarini samarali hal qilish mumkin. Shuningdek, individual yondashuv va muntazam mashqlar orqali fonetik idrokni rivojlantirish imkoniyati oshadi. Talaffuz to'g'riligi va aniqligi nafaqat shaxsiy muloqotda, balki kasbiy sohalarida ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Logopediya: T.B. Filicheva, L.S. Volkova, G. Chirkina, L. Mo'minova va boshq. Toshkent "O'qituvchi": -1993

2. Nutq kamchiliklari: bartaraf etish texnologiyalari L.R. Mo'minova Toshkent -2017

3. Koroleva I.V. Kar bolalar va kattalami koxlear implantatsiya qilish (elektrod eshitish protezlari). - SPb.: KARO, 2008

4. Mamarajabova Z.N. Koxlear implantli eshitish moslamalari o'rnatilgan, zaif eshituvchi bolalar eshituv-nutqiy reabilitatsiyasi- Toshkent:

5. Kuzmicheva E.P., Yaxnina S.Z. Kar bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish. - M., 2003 yil.

6. Mamarajabova Z.N. Koxlear implantli eshitish moslamalari o'rnatilgan, zaif eshituvchi bolalar eshituv-nutqiy reabilitatsiyasi- Toshkent: AktivPrint,